

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi  
«O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari»  
ilmiy-tadqiqot markazi**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK: 330.15:336.2(575.1)**

**YULDASHEVA MADINA TOHIR QIZI**

**O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA  
FISKAL VOSITALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
D I S S E R T A S I Y A**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor F.I.Isayev**

**Toshkent-2026**

## M U N D A R I J A

|                 |                                                                                                                        |            |
|-----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|                 | <b>KIRISH.....</b>                                                                                                     | <b>3</b>   |
| <b>I BOB.</b>   | <b>YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA FISKAL INSTRUMENTLAR.....</b>                                            | <b>12</b>  |
| <b>1.1-§.</b>   | Yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning mohiyati va rivojlanish bosqichlari.....                                         | 12         |
| <b>1.2-§.</b>   | Fiskal instrumentlarning yashil iqtisodiyotdagi ahamiyati.....                                                         | 30         |
| <b>1.3-§.</b>   | Yashil fiskal instrumentlarini tadbiq qilishning ilg'or xorij tajribasi.....                                           | 47         |
|                 | Birinchi bob bo'yicha xulosa.....                                                                                      | 69         |
| <b>II BOB.</b>  | <b>O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING HOLATI VA TAHLILI.....</b>            | <b>72</b>  |
| <b>2.1-§.</b>   | O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan fiskal siyosat tahlili.....                             | 72         |
| <b>2.2-§.</b>   | O'zbekistonda ekologik soliqlar va ularning samaradorligi.....                                                         | 88         |
| <b>2.3-§.</b>   | O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga davlat va xususiy sektorning hissasi.....                          | 102        |
|                 | Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....                                                                                      | 113        |
| <b>III BOB.</b> | <b>O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA FISKAL INSTRUMENTLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....</b> | <b>115</b> |
| <b>3.1-§.</b>   | Yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun soliq siyosatini takomillashtirish.....                                  | 115        |
| <b>3.2-§.</b>   | Yashil investitsiyalarni rag'batlantirishning fiskal mexanizmlari.....                                                 | 126        |
| <b>3.3-§.</b>   | O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion fiskal instrumentlar.....                          | 141        |
|                 | Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....                                                                                      | 150        |
|                 | <b>XULOSA.....</b>                                                                                                     | <b>153</b> |
|                 | <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                         | <b>157</b> |
|                 | <b>ILOVALAR.....</b>                                                                                                   | <b>165</b> |

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish masalasi XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va ekologik izolyatsiyaning kuchayishi jahonda barqaror rivojlanish tamoyillariga jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar, xususan, PwC tomonidan 2025-yil boshida chop etilgan hisobotiga ko'ra, "soliq siyosati milliy va xalqaro darajada dekarbonizatsiya uchun eng muhim vosita sanaladi: yashil investitsiyalarni joriy etish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatli o'tishni ta'minlashda soliq imtiyozlari, energiya tejamkorligi, elektr avtomobillariga subsidiyalar muhimdir"<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan, yashil fiskal vositalarni chuqur tahlil qilish, ularning samaradorligini o'lchash va milliy siyosatga moslashtirish masalalarning xalqaro dolzarbligi tobora ortmoqda va barqaror rivojlanish strategiyalarini integratsiyalash bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda.

Bugungi kunda xalqaro tadqiqotlar, avvalo, fiskal vositalarning ekologik ta'sirini baholash, zararli faoliyatlarni subsidiyalashni qisqartirish, karbon soliqlari va yashil investitsiyalarga imtiyozlar berish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Yashil soliqlar va karbon yig'implari Yevropa davlatlarida deyarli barcha sohalarga joriy etilgan bo'lib, bu orqali ifloslantiruvchi faoliyatlardan tushumni oshirish va uni qayta tiklanuvchi manbalarga yo'naltirish amaliyoti shakllanmoqda. Shuningdek, tadqiqotchilar yashil fiskal islohotlarning samaradorligini baholash uchun KPilar, chiqindilarni hisoblash algoritmlari va ijtimoiy ta'sirni o'lchash indikatorlarini joriy etmoqdalar. Umuman, xalqaro amaliyotda yashil fiskal siyosatni strategik rejalashtirish, uni institutsionallashtirish va milliy xususiyatlarga moslashtirish borasida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

---

<sup>1</sup> Why tax policy is the missing link in global decarbonisation strategies. Harnessing tax effectively is crucial in accelerating the just transition, says PwC <https://www.thetimes.com/world/ireland-world/article/why-tax-policy-is-the-missing-link-in-global-decarbonisation-strategies-tp19cj2xb?>

O‘zbekiston ham yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo‘yicha izchil choralarni amalga oshirmoqda. Xususan, mamlakatda yashil iqtisodiyot strategiyasi ishlab chiqilib, uni amaliyotga tatbiq etish yo‘lida ekologik qonunchilik, davlat dasturlari va xalqaro bitimlar asosida ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida “O‘zbekistonda dolzarb maqsadlar sifatida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste‘moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish o‘z aksini topganini keltirib o‘tishimiz mumkin”<sup>2</sup> deb keng ko‘lamli vazifalar belgilab berilgan. Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda fiskal vositalardan samarali foydalanish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash, byudjet mablag‘larini maqsadli yo‘naltirish va iqtisodiyotni kam-uglerodli, innovatsion hamda raqobatbardosh shaklda modernizatsiya qilishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi 158-son “O‘zbekiston — 2030” srategiyasi to‘g‘risidagi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmonlari, 2019-yil 04-oktaybrdagi PQ-4477-son “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida, 2022-yil 2-dekabrdagi 436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar” to‘g‘risida”, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 04-iyundagi PQ-213-son “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari” to‘g‘risida”gi qarorlari hamda

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘ZBEKISTON — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>